

DALILLARNING XUSUSIYATLARI VA NOMAQBUL DALILLAR

Madatov Mahmudjon Muxtor o'g'li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura fakulteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: X.Tursunbekov

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida dalil tushunchasiga berilgan ta'rif, faktik ma'lumotlar tushunchasi, dalillarni tergovda foydalanish masalalari, dalillarni tergovda qo'llashning huquqiy asoslari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В статье изложены сведения об определении понятия доказательств в законодательстве Республики Узбекистан, понятии фактических данных, вопросах использования доказательств в расследовании, а также правовых основах использования доказательств в расследовании.

Annotation: This article provides information on the definition of the concept of evidence in the legislation of the Republic of Uzbekistan, the concept of factual information, issues of using evidence in an investigation, and the legal basis for using evidence in an investigation.

Kalit so'zlar: Dalil, faktik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi, dalillarni tergovda qo'llash, maqbul dalillar, modda.

Ключевые слова: Доказательства, фактические данные, Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, использование доказательств в расследовании, допустимые доказательства, статья.

Keywords: Evidence, factual information, Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, use of evidence in the investigation, admissible evidence, article.

Dalillarning xususiyatlari va nomaqbul dalillar

Jinoyat ishidagi har bir dalil qabul qilinadiganlik, tegishlilik, mazmun va shakl birligi xususiyatlariga ega bo'lishi kerak.

Dalillik qoidalarida dalilning maqbulligi qoidalari alohida o'rin tutadi. Ushbu qoidalar dalil vositalarining ishonchliligini ta'minlashi va shu bilan ma'lum holatlarni isbotlangan yoki isbotlanmagan deb tan olish uchun ishonchli asos yaratishi kerak.

Dalillarning maqbulligi deganda dalillar manbasining qonuniyligini, faktik ma'lumotlarni olish va ta'minlash usullarini aniqlash tushuniladi. Bu uning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashda foydalanish uchun yaroqliligi, qonun hujjatlarining manbalar, dalillarni aniqlash, ta'minlash va tekshirish tartibi to'g'risidagi talablariga javob beradi.

Dalillarni to'plash fuqarolarning huquq va erkinliklariga sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, dalillarning maqbulligi kabi ko'rinadigan alohida masala konstitutsiyaviy qonunchilikning predmetiga aylandi.

Qonunni buzgan holda olingan dalillar yuridik kuchga ega emas deb e'tirof etiladi va ular ayblov qo'yish uchun asos bo'lishi yoki Jinoyat-protsessual kodeksida sanab o'tilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanilishi mumkin emas. Ushbu qoidadan kelib chiqadiki, nafaqat ayblov, balki boshqa har qanday holatlar, shu jumladan ayblanuvchining javobgarligini engillashtiradigan yoki uni javobgarlikdan ozod qiladigan holatlarning isboti ham yo'l qo'yiladigan dalillarga asoslanishi kerak.

Qonunchilikda muayyan holatlarda to'plangan dalillar nomaqbul bo'lishi, undan isbotlashda foydalanish taqiqlanishi belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining 95¹-moddasiga ko'ra, Agar faktik ma'lumotlar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud ushbu Kodeks talablari buzilgan holda olingan bo'lsa, shu jumladan:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo'li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi.

Faktik ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanishning maqbul emasligi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning o'z tashabbusi bilan yoki ishtirokchilarning iltimosnomasi bo'yicha aniqlanadi. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya dalillarning maqbul emasligi to'g'risidagi masalani hal qilayotganida har bir holatda yo'l qo'yilgan buzilish nimada aniq ifodalanganligini aniqlab olishi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan ushbu Kodeks normalari buzilgan holda olingan ko'rsatuvlardan, ekspert xulosasidan,

ashyoviy dalillardan, audio-, videoyozuvlardan va boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 24 avgustdagi 24-sonli «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi Qarorida dalillarning maqbul emasligiga olib keladigan holatlar kengroq bayon qilingan bo‘lib, bu JPKni qo‘llovchi barcha uchun majburiy hisoblanadi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan qonun normalarini aniq bajarishdan va unga rioya qilishdan har qanday chekinish, u qanday sababga ko‘ra yuz berganligidan qat’iy nazar, shu yo‘l bilan olingan dalillarning maqbul emas (yaroqsiz) deb topilishiga olib keladi.

Maqbul bo‘lmagan dalillar yuridik kuchga ega bo‘lmay, ulardan JPK 82 — 84-moddalarida nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo‘yish mumkin emas¹.

Dalillar maqbulligining shartlari quyidagilar:

dalil tegishli sub’ekt tomonidan, ya’ni dalilni olish bilan bog‘liq bo‘lgan protsessual harakatni o‘tkazishga vakolatli mansabdor shaxs tomonidan olingan bo‘lishi;

faktga oid ma’lumotlar faqat JPK 81-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan olingan bo‘lishi;

dalil uni olish bilan bog‘liq protsessual harakatni o‘tkazishga oid qoidalar va tartibga rioya etilgan holda olingan bo‘lishi;

dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo‘lishi shart².

Amaliyotda dalillar maqbulligining ushbu shartlarini buzish bilan bog‘liq holatlar ko‘plab kuzatilmoqda. Misol uchun, jinoyat ishi ish yurituvda bo‘lmagan, tergov guruhi a’zosi bo‘lmagan shaxs tomonidan tergov harakatlari o‘tkazilishi natijasida olingan dalillar, xolis sifatida rad etilishi lozim bo‘lgan shaxslarning ishtirok etishi, protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari tushuntirilmaganligi va hokazo.

Shunnigdek, ushbu qarorda JPKning 95-moddasida qayd etilgan holatlar bilan birga, shu jumladan quyidagi hollarda olingan bo‘lsa maqbul emas deb topilishi belgilangan:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo‘li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 yil 24 avgustdagi 24-sonli «Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi Qarori. // Lex.uz manbasi.

² O‘sha joyda.

bo'lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan.

JK 235-moddasi va 1984 yil 10 dekabrda «Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya»ning 1-moddasiga ko'ra, qiynoqlar hamda boshqa shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo deganda, mansabdor shaxs yoki boshqa rasmiy shaxs tomonidan yoxud rasmiy yoki boshqa shaxs dalolatchiligi yoki xabardorligi yoxud indamasdan bergan roziligi bilan boshqa shaxs tomonidan sodir etilgan harakat tushunilib, uning natijasida qasddan shaxsga quyidagi maqsadlarda kuchli og'riq, jismoniy, ruhiy yoki psixologik azob yetkaziladi:

undan yoki uchinchi shaxsdan axborot yoki u sodir etgan yoxud sodir etilishida u gumon qilinayotgan harakat bo'yicha iqrorlik olish;

uni yoki uchinchi shaxsni qo'rqitish yoki u yoki bu harakatni sodir etishga majburlash.

Dalillarni to'plash va mustahkamlashda ruxsat berilmagan usullar qo'llanilganligi to'g'risida murojaat kelib tushgan holda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud arz qiluvchining vajlarini xizmat tekshiruv va sud-tibbiy yoki boshqa ekspertiza tayinlash yo'li bilan tekshirishi shart.

Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) deganda, isbotlashni amalga oshirayotgan yoki isbotlashda ishtirok etish uchun jalb qilinayotgan shaxslar tomonidan g'arazli yoki boshqa past niyatlarda tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishi materiallari bo'yicha hujjatlarga yoxud ashyolarga bila turib yolg'on ma'lumotlarni kiritishda va boshqacha tarzda buzib ko'rsatishda namoyon bo'lgan harakatlar tushunilishi lozim.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, jumladan quyidagi hollarda buzilgan hisoblanadi, agar:

protsessual harakatda qonunga ko'ra himoyachi ishtiroki shart bo'lib, dalil surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sud tomonidan uning ishtirokisiz olingan bo'lsa;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga uning himoyaga bo'lgan huquqi tushuntirilmagan yoki bu huquqdan foydalanish imkoniyati amalda ta'minlanmagan

bo'lsa.

Sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari buzilishi masalasiga oid batafsil tushuntirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida» 2003 yil 19 dekabrda 17-sonli qarorida berilgan.

Jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakat bunga huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan quyidagi hollarda dalil olishda namoyon bo'ladi:

surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning yozma topshirig'isiz tergovga qadar tekshiruv yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ tomonidan;

ishni belgilangan tartibda o'z yurituviga qabul qilmagan yoki tergov (surishtiruvchilar) guruhiga kiritilmagan tergovchi (surishtiruvchi) tomonidan;

JPK 76-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha rad etilishi lozim bo'lgan shaxs tomonidan.

Dalil, agar u noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan, jumladan, qonunda nazarda tutilmagan manbadan, masalan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan tezkor-qidiruv tadbiri davomida olingan dalillar maqbul emas deb hisoblanadi.

Dalil u JPK talablari buzilgan tarzda, jumladan, quyidagi hollarda olingan bo'lsa ham maqbul emas deb topiladi, agar:

a) tergov harakati qonunda nazarda tutilgan hollarda prokuror yoki sudning roziligi olinmasdan o'tkazilgan bo'lsa (kechiktirib bo'lmaydigan hollar bundan mustasno);

b) tergov harakatida xolis sifatida ish bo'yicha manfaatdor shaxs, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yoki ularga jamoatchilik asosida ko'maklashuvchi boshqa shaxslar ishtirok etgan bo'lsa;

v) ekspert xulosasi ekspertiza tayinlash vaqtida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining huquqlari buzilgan holda, shuningdek, ekspert rad etilishi shart bo'lgan holda olingan bo'lsa;

g) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari JPK 116-moddasi talablariga xilof ravishda o'z roziligisiz gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga tegishli holatlar yuzasidan so'roq qilingan bo'lsa;

d) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining surishtiruv va dastlabki tergov davrida guvoh sifatida so'roq qilinganda bergan ko'rsatuvlari sud majlisida boshqa dalillar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa;

e) jabrlanuvchi, guvohning faraz, taxmin, mish-mishlarga asoslangan ko'rsatuvlari, shuningdek, jabrlanuvchi, guvoh o'zining xabardorligi manbasini aytib bera olmagan yoki aytishni xohlamagan hollarda;

j) so‘roq yuritilayotgan tilni (alfavitni) bilmaydigan yoki yetarlicha bilmaydigan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohning ko‘rsatuvlari tarjimon (mutaxassis) ishtirokisiz olingan bo‘lsa;

z) voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh ko‘rsatuvlari qonuniy vakilining (JPK 549-moddasi), zarur hollarda esa, pedagog yoki psixologning ishtirokisiz olingan bo‘lsa (JPK 554-moddasi);

i) guvoh yoki jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslarning ko‘rsatuvlari (JPK 115-moddasi);

k) dalillarni qayd etishning protsessual formasi buzilgan bo‘lsa:

tergov harakatlari va sud tergovida ishtirok etuvchi shaxslarga oid ma‘lumotlar yo‘qligi;

tergov harakatlari va sud tergovida ishtirok etuvchi shaxslarga huquq va majburiyatlarining tushuntirilmaganligi;

tergov harakatlari boshlangan hamda tugallangan vaqtning ko‘rsatilmaganligi;

raqamli (elektron) tashuvchi jismlardagi ma‘lumotlar mutaxassis ishtirokisiz olib qo‘yilganligi yoki ko‘zdan kechirilganligi;

JPK 90 — 93-moddalarida nazarda tutilgan boshqa, jumladan o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tarzidagi, tintuv, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti, shaxsni ushlash, himoyachidan voz kechish, shaxsni ushlash jarayonida o‘tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo‘yish tarzidagi protsessual harakatlar videoyozuv vositalaridan foydalangan holda qayd etilishi shartligi to‘g‘risidagi talablar bajarilmaganligi;

l) daxlsizlik huquqi buzilgan holda ushlab turilgan, uy qamog‘i yoki qamoqqa olish tarzida ehtiyot chorasi qo‘llanilgan yoki jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsdan iqrorlik ko‘rsatuvini olingan bo‘lsa;

m) O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda to‘plangan bo‘lsa;

n) tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tekshirish (taftish qilish) JPK 187¹-moddasi talablari buzilgan holda o‘tkazilgan bo‘lsa.

Dalillar maqbulligiga taalluqli yuqorida sanab o‘tilgan shartlardan birortasiga amal etilmasligi dalilning maqbul emas deb topilishiga asos bo‘ladi.

Jinoyat to‘g‘risidagi ariza, xabar bilan birga taqdim etilgan hujjatlar, predmetlar (narsalar), fotosuratlar, audio-, videoyozuvlar **faqat ushbu materiallarni taqdim etgan shaxslar ish qo‘zg‘atilgandan keyin** so‘roq qilingan va taqdim etilgan hujjatlar, predmetlar (narsalar) kim tomonidan, qachon, qayerda, qanday holatlarda topilganligi yoki fotosurat, audio-, videoyozuvlar amalga oshirilganligi **aniqlangan holdagina maqbul dalil** sifatida foydalanilishi mumkin. Taqdim etilgan predmetlar (narsalar)ni maqbul dalil deb topishning zarur sharti ularni ko‘zdan kechirish to‘g‘risidagi bayonnoma tuzilganidan so‘ng chiqariladigan, predmetlar (narsalar)ni ishga ashyoviy

dalil sifatida qo‘shish to‘g‘risidagi qaror (ajrim) hisoblanadi. Zarur hollarda hujjatlar, predmetlar (narsalar), fotosuratlar, audio-, videoyozuvlarni ishga daliliy ashyo sifatida ishga qo‘shish masalasini hal etish uchun tegishli ekspertiza tayinlanishi mumkin.

To‘plash paytida yo‘l qo‘yilgan qonun buzilishi sababli maqbul emas deb topilgan ayrim dalillardan isbot qilishda tegishli protsessual harakatlar belgilangan talablarga amal qilgan holda o‘tkazilgandan so‘ng foydalanilishi mumkin (masalan, tergov yoki sud harakati o‘tkazish bayonnomalarida ayrim ma‘lumotlar yoki bandlarning yo‘qligi, basharti bu kamchilikni xolislar, ushbu harakatning boshqa ishtirokchilarini, zarur hollarda esa, surishtiruvchi yoki tergovchini so‘roq qilish orqali bartaraf qilish imkoniyati bo‘lsa va h.k.).

Shu bilan birga, maqbul emas deb topilgan ayrim dalillarni, ularning yuridik tabiatiga ko‘ra, tiklashning imkoniyati yo‘q (masalan, qonunga muvofiq roziligi olinishi shart bo‘lgan hollarda jabrlanuvchini, guvohni uning roziligini olmasdan takroran so‘roq qilish, shaxsni yoki narsani tanib olish uchun takroran ko‘rsatish va h.k.) bo‘lib, bu isbot qiluvchi sub‘ektni muayyan holatni tasdiqlovchi vosita sifatida mazkur dalilga tayanish huquqidan mahrum etadi.

Tezkor-qidiruv vositalari orqali olingan ma‘lumotlar, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibda tekshirilgunga qadar, ya‘ni sud qachon va qanday sharoitlarda kim tomonidan olinganligini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lmaguncha, qabul qilinishi mumkin bo‘lgan xususiyatga ega bo‘lmaydi. Ularning yordamisiz bir qator jinoyatlarni, jumladan, og‘ir jinoyatlarni ham ochib bo‘lmaydi. Ammo ushbu turdagi faoliyatdan jinoyatlarni ochish, jinoyatchilarni aniqlash maqsadida foydalanish va ushbu faoliyatning o‘zini dalil sifatida ko‘rib chiqishga urinish va uning natijalarini xulosalar uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan oddiy dalil sifatida ko‘rib chiqish o‘rtasida chegara qo‘yish kerak. ish, ayniqsa hukm chiqarishda.

Dalil faqat shunday ma‘lumotlar bo‘lishi mumkin, faqat jinoyat-protsessual qonunning barcha talablariga rioya qilgan holda to‘plangan, dalillarni qo‘llash qoidalarini va barcha tergov va sud harakatlarini o‘tkazishni batafsil tartibga soluvchi faktik ma‘lumotlar.

Sud ishni to‘g‘ri hal qilish va qonuniy va asosli hukm chiqarish uchun o‘z tashabbusi bilan sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybdorligini isbotlash choralari ko‘rishga haqli emas, lekin qonunda nazarda tutilgan choralarni ko‘rishi shart. tomonlarning tegishli dalillarni to‘plash va taqdim etish bo‘yicha protsessual huquqlarini amalga oshirishiga yordam beradigan qonun ⁷³.

Jinoyat ishida isbotlash predmetiga kiritilgan har qanday holatlarning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan taqdidagina tegishli bo‘ladi.

Dalillarning ahamiyatligini aniqlash ishni isbotlash jarayonida, dalillarni

³ Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 8 dekabrda 84-sonli qarori p.6.

to'plashdan boshlab, qanday tergov harakatlarini o'tkazish kerakligi va ishning holatlarini aniqlash nuqtai nazaridan ulardan qanday natijalar kutish mumkinligi haqida savol tug'ilganda sodir bo'ladi. qaror qilinadi. Dalillarning ahamiyatini baholash tergovni rejalashtirish, tergov versiyalarini tekshirish tartibi, jarayon ishtirokchilarining dalillarni to'plash yoki ularni ishga biriktirish to'g'risidagi so'rovlarini hal qilish bilan bog'liq.

Muayyan ishda isbotlash predmetiga kiritilgan holatlarni aniqlash uchun muhim bo'lishi mumkin bo'lgan holatlar doirasini oldindan belgilash mumkin emas. Ushbu holatlar doirasi, birinchi navbatda, sodir bo'lgan voqeaning versiyalarini ishlab chiqadigan va tekshirgan tergovchi tomonidan belgilanadi va belgilanadi. Ular jarayon ishtirokchilarining iltimosiga binoan ham tuzilishi mumkin.

Ish uchun muhim bo'lgan holatlar to'plangan dalillarni tekshirish va baholash uchun zarur bo'lgan aniqlikdir. Shubhasiz, tegishli holatlarning xilma-xilligi tegishli deb tan olingan turli xil faktik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga yordam bera oladimi, degan savolni tergovchi va sud ko'rsatilgan qoidalarga amal qilgan holda belgilaydi. qonunda. Ishdagi har bir holatni aniqlash uchun dalillar to'plami talab qilinadi. Ko'rinib turibdiki, qonun na bu dalillarning miqdorini (masalan, voqea guvohlari orasidan qancha guvoh so'roq qilinishi kerak), na uning turlarini oldindan belgilay olmaydi. Bularning barchasi ishning o'ziga xos holatlariga bog'liq va jarayonni amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan belgilanadi. Ularning o'zlari ichki ishonchga ko'ra, muayyan holatlarni yoki ishda isbotlash predmetini tashkil etuvchi barcha holatlarni aniqlash uchun yetarli dalillar to'planganmi yoki yo'qmi, hal qiladilar, ya'ni. isbotlash chegaralarini belgilang.

Dalillarning ahamiyatliligi, asosan, ushbu dalillar yordamida aniqlanishi mumkin bo'lgan holat ishdagi isbotlash predmetiga kiritilganmi yoki yo'qmi, shuningdek, uning mazmunidagi dalillar ushbu holatni aniqlash uchun xizmat qila oladimi yoki yo'qligi bilan belgilanadi.

Mazmun va shaklning birligi ham dalil mulkidir. Isbotlash predmetiga kiritilgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar dalillarning mazmunini tashkil qiladi. Bunday holda, dalillarning ahamiyati nafaqat ishning holatlari to'g'risidagi haqiqiy, ishonchli ma'lumotlar bo'lib, ular asosida yakuniy xulosalar shakllantiriladi, balki ish uchun muhim bo'lgan faktlar to'g'risidagi ish yuritish jarayonida qonuniy ravishda olingan har qanday ma'lumotdir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida to'plangan barcha dalillar baholanishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Ushbu maqola barcha dalillarni baholashga majbur qiladi. Shuningdek, ayblov hukmida "sud xulosalari asos bo'lgan dalillar va sud boshqa dalillarni rad etgan sabablar" va oqlov hukmida "sud dalillarni nima uchun rad etishini tushuntiruvchi sabablar" ko'rsatilgan.

Bu ayblov asos qilib olingan ⁴.

Har bir dalil o'z tabiatiga ko'ra ma'lum holatlarning aksi bo'lganligi sababli, umuman olganda, har qanday ma'lumot kabi, o'ziga xos mazmun va shaklga ega. Dalillar shakli — ishning holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning muayyan shaxslarning xabarlari, ashyolardagi o'zgarishlar, ashyolardagi izlar va boshqalar ko'rinishida mavjud bo'lish usuli. ish uchun tegishli faktlar jinoyat ishining holatlari to'g'risidagi ma'lumot manbalari ushbu tushunchada dalil manbalari hisoblanadi. (Dalillar nazariyasiga oid ishlarda isbotlash vositalari, axborot manbalari, faktik ma'lumotlar manbalari, dalil tashuvchilar kabi atamalar ham qo'llaniladi).

Har qanday dalil mazmun va shaklning birligidir. Uning mazmuni isbotlash predmetiga kiritilgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, uning shakli esa ushbu holatlar to'g'risidagi ma'lumot manbai hisoblanadi. Manbasi noma'lum bo'lgan yoki Jinoyat-protsessual kodeksi talablariga javob bermaydigan ma'lumotlar dalil hisoblanmaydi, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lmagan ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining kodekslari to'plami. Birinchi jild. – Toshkent. “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023;
3. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. //Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2016;
4. O'zbekiston Respublikasining 21.11.2024 yildagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-1003-son Qonuni. // <https://lex.uz/docs/7228758>;
5. Digital evidence and computer crime by Eoghan Casey. Published by Elsevier Inc. 2011;
6. International Journal of Digital Evidence, Spring 2002 Volume 1, Issue 1: <https://www.utica.edu/academic/institutes/ecii/publications/articles/9C4E695B-0B78-1059-3432402909E27BB4.pdf>;
7. Kriminalistika, darslik. Mualliflar jamoasi - Toshkent: DTYuU;
8. O'zbekiston Respublikasining kodekslari to'plami. Birinchi jild. – Toshkent. “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023;
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.08.2018 yildagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi №24-sonli Qarori, lex.uz qonunchilik bazasi: <https://lex.uz/docs/3895986?ONDATE=24.08.2018>;
10. Lex.uz;
11. Proacademy.uz Internet sahifalari.

⁴Jinoiy jarayon / Darslik, ed. A.S. Koblikova. - M.: NORMA-INFRA, 1999. - b. 71.